



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 67-76 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON IQTISODIY SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO MOLIVAVIY TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIKNING AHAMIYATI



Normurodova Zuhra Orzimurod qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2-bosqich talabasi

Xodjimamedov Akmal Ashurovich

PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligi va ularning mamlakat iqtisodiy siyosatiga ta'sirini tahlil qiladi. Xususan, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi ustav kapitalidagi qo'shimcha aksiyalarga sotib olish jarayoni, uning iqtisodiy barqarorlik, investitsiya faolligi va infratuzilma rivoji uchun ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish va xalqaro moliya institutlari bilan samarali hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, O'zbekiston iqtisodiy siyosati, EBRD, IFC, investitsiya, iqtisodiy barqarorlik, infratuzilma rivoji, davlat islohotlari.

Аннотация. В статье анализируется сотрудничество Республики Узбекистан с международными финансовыми организациями и их влияние на экономическую политику страны. В частности, освещается процесс приобретения дополнительных акций в уставном капитале Международного банка реконструкции и развития и Международной финансовой корпорации, его значение для экономической стабильности, инвестиционной активности и развития инфраструктуры. В исследовании разрабатываются предложения по повышению инвестиционной привлекательности страны и укреплению эффективного сотрудничества с международными финансовыми институтами.

Ключевые слова: Международные финансовые организации, экономическая политика Узбекистана, ЕБРР, МФК, инвестиции, экономическая стабильность, развитие инфраструктуры, государственные реформы.

Abstract. This article analyzes the Republic of Uzbekistan's cooperation with international financial organizations and their impact on the country's economic policy. Specifically, it highlights the process of acquiring additional shares in the authorized capital of the International Bank for Reconstruction and Development and the International Finance Corporation, and its significance for economic stability, investment activity, and infrastructure development. The study develops proposals for increasing the country's investment attractiveness and strengthening effective cooperation with international financial institutions.

Keywords: International financial organizations, Uzbekistan's economic policy, EBRD, IFC, investment, economic stability, infrastructure development, government reforms.

Kirish

Global iqtisodiy tizimda mamlakatlarning rivojlanish sur'ati ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimlaridan biri xalqaro moliyaviy tashkilotlar (XMT) hisoblanadi. XMTlar kredit, grant, texnik yordam va maslahatlar orqali davlatlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va investitsion faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlar bilan integratsiyasi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, investitsiya jozibadorligini oshirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, so'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy siyosatini shakllantirish va isloh qilish jarayonlarida xalqaro moliyaviy tashkilotlar faol ishtirok etmoqda. Jumladan, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Osiyo taraqqiyot banki va EBRD kabi institutlar mamlakatning moliya sektori, infratuzilma va ijtimoiy sohalarida ko'plab strategik loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – O'zbekistonning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligi orqali iqtisodiy siyosatining samaradorligini tahlil qilish va ularning milliy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini aniqlashdir. Shu maqsadda maqolada XMTlar ta'sirining makroiqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va huquqiy jihatlari o'rganiladi hamda mamlakatning investitsion muhitiga qo'shgan hissasi baholanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, O'zbekistonning XMTlar bilan a'zoligi va amalga oshirilgan loyihalarini tizimli ravishda o'rganish; ikkinchidan, xalqaro moliyaviy institutlarning milliy siyosatga ta'sir mexanizmlarini aniqlash; uchinchidan, mavjud natijalarni baholash va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga tavsiyalar berish. Shu orqali maqola O'zbekistonning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik imkoniyatlarini, ularning strategik ahamiyatini va ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi ustav kapitalidagi qo'shimcha aksiyalarga obuna bo'lishi"¹ to'g'risidagi Qarori mamlakatning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan samarali hamkorligini yanada mustahkamlash, investitsion faollikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Ushbu tashabbus O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, davlat korxonalari boshqaruvi, bank sektori modernizatsiyasi, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va "yashil iqtisodiyot" yo'nalishidagi strategik loyihalarni qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qo'shimcha aksiyalarga obuna bo'lish mamlakatning xalqaro moliya institutlarida o'z ovozi kuchaytirish, global investitsion loyihalarda ishtirokini kengaytirish va O'zbekistonning iqtisodiy siyosatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish imkoniyatini yaratadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi ustav kapitalidagi qo'shimcha aksiyalarga obuna bo'lishi to'g'risida"gi 30.11.2021 yildagi PQ-26-sonli qarori

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning O'zbekiston iqtisodiy siyosatiga ta'siri mavzusida ko'plab olimlar tadqiqot olib borgan.

Jumladan, N.M.Mamatkulova tomonidan yozilgan "The impact of international financial organizations on Uzbekistan's investment policy" nomli maqolada xalqaro moliyaviy tashkilotlarning O'zbekistonning investitsiya siyosatiga ta'sirini o'rganadi. Olim XMTlar orqali qonunchilik islohotlari, yashil moliyalashtirish, infratuzilma loyihalari, bank sektorini modernizatsiya qilish va investitsiya muhitini yaxshilash kabi tashabbuslarni amalga oshirishni tahlil qilgan. Ilmiy tadqiqotining natijasi sifatida, XMTlar davlat korxonalarini boshqarishni modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi o'rnini yoritib bergan, shu bilan birga global va mintaqaviy iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida siyosatlarni shakllantirishga ta'sir qilishi haqida so'z yuritgan [1].

Mavzu yuzasidan Романчук Е. tomonidan tadqiq qilingan "Влияние всемирного банка на экономическое развитие республики Узбекистан" nomli maqolada olim so'nggi yillarda O'zbekistondagi iqtisodiy rivojlanish hodisasi ko'rib chiqqan. Mamlakatda xalqaro moliya institutlarining faolligining ortishi mamlakat tashqi sektorining liberallashtirilishi tufayli yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlangani, ammo bu o'sishni yanada emasligi haqida yozadi. O'zbekiston misolida Jahon bankining rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatiga ta'siri cheklanganligi ko'rsatilgan. Bu ta'sir mamlakat hukumati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun ichki moliyaviy resurslarning yetishmasligini boshdan kechirayotgani sababli xalqaro tashkilotlarga kredit mablag'lari uchun murojaat qilgani sayin kuchayib borayotgani yoritilgan. Shuningdek, Jahon banki iqtisodiyotning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvini oshirish uchun islohotlarni va milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlaridagi o'zgarishlarni talab qilishi mumkinligi haqida so'z yuritadi [2].

Shuningdek, o'zbek tadqiqotchisi Rakhmonova D.E. ning "What is the economic impact of Uzbekistan's integration into international financial institutions" nomli maqolasida O'zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligining iqtisodiy ta'sirini o'rganib chiqqan olim o'z tadqiqotida so'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar davrida iqtisodiy o'sish, savdo aloqalari, tashqi qarzlar va iqtisodiy tuzilmadagi o'zgarishlar tahlil qilgan. Ushbu integratsiyaning ijobiy va salbiy tomonlari ko'rib chiqiladi hamda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksportni kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan [3].

Azizbek Alimov tomonidan yozilgan "Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston bank sektori va iqtisodiyotiga ta'siri: YETTB faoliyati misolida tahlil" nomli maqolada xalqaro moliya institutlarining, xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YETTB) O'zbekiston bank sektori va iqtisodiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda XMlarning faoliyati, ularning moliyaviy instrumentlari, hamkorlik mexanizmlari hamda YETTBning Hamkorbank ATB bilan amalga oshirgan loyihalari asosida amaliy tahlil amalga oshirilgan. Ushbu maqsadda mavjud statistik ma'lumotlar, YETTB hisobotlari, O'zbekiston bank tizimi tuzilmasi va xorijiy investitsiya oqimlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, YETTB ishtirokida amalga oshirilgan loyihalar banklar

faoliyatida kapital bazasini mustahkamlash, korporativ boshqaruvni yaxshilash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutayotgani aniqlandi. [4].

Xalqaro integratsiyalashuv bo'yicha B. Mamayev va H. Nosirov, "O'zbekistonning Xalqaro Moliya Munosabatlariga Integratsiyalashuvi" nomli maqolada O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy iqtisodiyotni yangi davr darjasiga ko'tarish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish va jahon iqtisodiyoti integratsiyasiga jadal kirib borish xalqaro moliya munosabatlarini barqaror rivojlantirish bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Olimlar mazkur masalalarni ijobiy hal qilishda mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtiroki asosiy omil ekanligini xulosa qilganlar [5].


Rafiyeva Z. Va boshqa olimlar tomonidan yozilgan "Xalqaro Moliya O'zbekistonda" nomli maqolada O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xalqaro moliyaning rolini tadqiq qilgan. Olimlar infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, ish o'rinlari yaratish va yangi texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi yoritib berishgan. O'zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorligi va uning makroiqtisodiy barqarorlik, ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat siyosatiga ta'siri tahlil qilishgan. Xalqaro moliya vositalaridan samarali foydalanish O'zbekistonning barqaror rivojlanishi, aholi turmush darajasini yuksaltirish va jahon miqyosidagi mavqeini mustahkamlashning eng muhim omili ekanligi xulosa qilishgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligining iqtisodiy siyosatga ta'siri tizimli va kompleks yondashuv orqali o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarni tahlil, jadval va statistik ma'lumotlarni solishtirish, shuningdek, PESTEL tahlili kabi strategik boshqaruv metodlari qo'llanildi. Shu bilan birga, O'zbekistonning IMF, Jahon banki, ADB, EBRD va AIIB bilan a'zoligi natijasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, infratuzilma loyihalari va bank tizimi modernizatsiyasi amaliy natijalari ham chuqur tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar — bu davlatlar o'rtasida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va global iqtisodiy tizimning izchil faoliyatini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan institutlardir. Ular kredit, grant, texnik yordam, konsultatsiya, investitsiya va siyosiy tavsiyalar orqali mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotini rag'batlantiradi. Bunday tashkilotlar qatoriga Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi institutlar kiradi. Ularning asosiy vazifalari makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tarkibiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, moliya tizimini mustahkamlash va infratuzilma rivojiga sarmoya kiritishdan iborat.



1-rasm. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar tashkil etish asoslari, vazifalari va shakllari[7]

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar mamlakatning iqtisodiy siyosatini samarali yuritish uchun bir nechta sabablar tufayli zarurdir. Birinchidan, ular iqtisodiy islohotlarni ilmiy asoslangan, xalqaro tajribaga tayangan holda shakllantirishga yordam beradi. Ikkinchidan, ular orqali jalb etilgan mablag'lar infratuzilma, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va bank sektorini modernizatsiya qilish imkonini yaratadi. Uchinchidan, bunday institutlar davlatga global bozorlarga chiqish, xorijiy investorlar ishonchini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda siyosiy qarorlar sifatini yaxshilashda ko'maklashadi. Natijada, xalqaro moliyaviy tashkilotlar mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Jahon moliyaviy resurslari bozorining barqaror ishlashini ta'minlash, xalqaro kapital oqimini faollashtirish va davlatlar o'rtasida moliyaviy hamkorlikni kengaytirish maqsadida turli xalqaro va mintaqaviy moliya-kredit institutlari shakllantirilgan. Ushbu xalqaro moliya tashkilotlari global moliyaviy tizimni qo'llab-quvvatlash, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga yordam ko'rsatish hamda investitsiya faoliyatini kuchaytirish orqali muhim vazifalarni bajaradi. Ularning asosiy funksiyalari va faoliyat yo'nalishlari 1-rasmda aks ettirilgan.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ichida xalqaro moliya tashkilotlari alohida o'ringa ega. Ushbu guruhga quyidagi tashkilotlar kiradi: XVF, Umumjahon banki guruhi, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Yevropa ta'mirlash va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki,

Osiyo taraqqiyot banki, Afrika taraqqiyot banki, Arab valyuta fondi, Islom taraqqiyot banki, Amerikalararo taraqqiyot banki, Qora dengiz savdo va taraqqiyot banki, Yevroosiyo taraqqiyot banki, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi va boshqalar kiradi.

1-jadval

O'zbekistonning Xalqaro moliyaviy tashkilotlarga a'zoligi

№	Xalqaro moliyaviy tashkilotlar	O'zbekiston a'zolingining boshlanishi	A'zolik natijasida O'zbekiston erishgan asosiy yo'nalishlar va yutuqlar
1	International Monetary Fund (IMF)	1992-yil 21-sentyabr [8]	Makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy siyosatni rejalashtirish va islohotlarda xalqaro tavsiyalar. IMF texnik yordam va tavsiyalar orqali O'zbekiston reformalar jarayonini olib bordi, bu esa davlat moliyaviy siyosatini global standartlarga moslashtirishga yordam berdi.
2	World Bank IBRD, IDA, IFC	1992-1993 yillarda [9]	— Infratuzilma, energetika va ijtimoiy sektorlarni rivojlantirish; — xususiy sektor va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash; — davlat korxonalarini modernizatsiya qilish va islohotlarni moliyalashtirish; — barqaror va yashil iqtisodiyot (green economy) yo'nalishidagi loyihalar; — davlat siyosatini strategik rivojlanish bilan uzviy bog'lash va Jahon banki bilan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi hamkorlik dasturini yo'lga qo'yish.
3	Asian Development Bank (ADB)	1995-yildan [10]	— Xalqaro investitsiyalar, infratuzilma va ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar yordamida iqtisodiyot va hududlar rivoji; — ADB orqali investitsiyalar jalb qilinishi, yangi loyihalar rejalashtirilishi va barqaror rivojlanishga turtki berilishi
4	European Bank for Reconstruction and Development (EBRD)	2017-yildan boshlab qayta jonlandi [11]	— 2024-yilda rekord darajada investitsiyalar: 34 loyiha, €938 mln; — O'zbekistonni Markaziy Osiyoda EBRD mablag'larida yetakchi qabul qiluvchi davlatga aylantirdi; — qayta tiklanuvchi energiya, "yashil iqtisodiyot", bank tizimi modernizatsiyasi, xususiy sektor va kichik-o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash; — davlat banklarini xususiylashtirish bo'yicha islohotlar, moliyaviy sektorda

			modernizatsiya, yangi ish o'rinlari va tadbirkorlikni rag'batlantirish
5	Asian Infrastructure Investment Bank (AIIB)	30 noyabr 2016 dan a'zo [12]	Suv, energetika, transport infratuzilmasi va "yashil" loyihalar uchun investitsiyalar jalb qilindi; 2025 yilda milliard dollarlik shartnomalar imzolandi, bu infratuzilmani modernizatsiya va iqtisodiy barqarorlik yo'lida katta imkoniyat yaratdi.
6	European Bank for Reconstruction and Development (EBRD)	30 aprel 1992 dan a'zo [12]	Bank va moliyaviy sektorni modernizatsiya qilish, xususiy sektor va kichik-o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali investitsiyalar jalb qilindi; bank tizimi islohati va iqtisodiy integratsiya rivoji yo'lidan samarali hissa qo'shdi.
7	Asian Development Bank (ADB)	O'zbekiston ADBga a'zo [12]	Infratuzilma va ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar (transport, energetika, suv, hududiy rivojlanish) investitsiyalari orqali mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritildi, hududlar rivoji rag'batlandi.

Yuqorida keltirilgan xalqaro moliyaviy tashkilotlarga a'zolik O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasida tizimli modernizatsiyani jadallashtiruvchi asosiy omil bo'lganini ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlari shuni anglatadiki, 1990-yillarning boshidan boshlab O'zbekistonning IBRD, IDA, IFC, MIGA, EBRD va ADBga qo'shilishi davlat boshqaruvini isloh qilish, infratuzilmani rivojlantirish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va bozor iqtisodiyotiga integratsiyalash jarayonini kuchaytirgan. Ayniqsa, Jahon banki guruhining a'zoligi orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, suv va energetika kabi hayotiy muhim sohalarda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilgan bo'lib, bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga sezilarli hissa qo'shgan. EBRDning 1992 yildan boshlab olib borgan faoliyati esa bank tizimini modernizatsiya qilish, xususiylashtirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash va kichik-o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faoliyatni liberallashtirishda muhim rol o'ynagan.

2016-yildan AIIBga a'zolikdan boshlab O'zbekistonning infratuzilmaviy va "yashil" iqtisodiy rivojlanish yo'nalishi yanada jadallashgani ko'zga tashlanadi. AIIB va ADB orqali transport, energetika va suv xo'jaligi bo'yicha strategik loyihalar moliyalashtirilishi mamlakatning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi ishtirokini kuchaytirgan. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir tashkilot O'zbekiston iqtisodiyotining alohida segmentlariga ixtisoslashgan tarzda ta'sir qilgan: Jahon banki guruhida boshqaruv va ijtimoiy soha, EBRDda xususiy sektor, AIIBda infratuzilma, ADBda hududiy rivojlanish. Natijada, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirgan, xorijiy kapital oqimini kuchaytirgan va barqaror o'sish uchun zarur bo'lgan institutsional islohotlar samaradorligini sezilarli darajada mustahkamlagan.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning O'zbekiston iqtisodiy siyosatiga ta'sirini baholashda tashqi makro-muhit omillarini tizimli tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur jarayonni chuqurroq anglash uchun PEST (Political, Economic, Social, Technological) tahlili qo'llaniladi, chunki aynan ushbu omillar xalqaro institutlar bilan hamkorlikning strategik yo'nalishlarini shakllantiradi va ularning mamlakatdagi islohotlarga ta'sir darajasini belgilaydi. Ushbu yondashuv xalqaro moliya tashkilotlarining siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va texnologik modernizatsiya jarayonlariga ta'sirini kompleks baholash imkonini yaratadi. (2-jadval)

2-jadval.

PESTEL tahlili

Omillar	Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning O'zbekiston iqtisodiy siyosatiga ta'siri
P Siyosiy omillar	IBRD, IMF, EBRD va ADB bilan hamkorlik davlat boshqaruvi, byudjet shaffofligi, davlat xaridlari va islohotlarni tezlashtirishga siyosiy bosim emas, balki rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida ta'sir ko'rsatadi.
E Iqtisodiy omillar	IFOlardan tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar, grantlar va texnik ko'mak investitsiyalar oqimini kuchaytiradi, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, bank sektorini modernizatsiya qiladi.
S Ijtimoiy omillar	Jahon banki va ADB loyihalarini aholining farovonligini oshirish, sog'liqni saqlash, ta'lim, ichimlik suvi, uy-joy va ijtimoiy himoya sohalarini yaxshilashga xizmat qiladi.
T Texnologik omillar	Yirik infratuzilma va energetika loyihalarida ilg'or texnologiyalar joriy etiladi; raqamli boshqaruv, elektron hukumat, bank texnologiyalari IFOlardan ko'magida modernizatsiyalanadi.
E Ekologik omillar	AIIB, ADB va EBRD ekologik barqaror transport, yashil energiya, chiqindilarni qayta ishlash hamda iqlim o'zgarishiga moslashuv loyihalariga moliya ajratadi.
L Huquqiy omillar	IFOlardan bilan hamkorlik natijasida investitsiya qonunchiligi liberallashtiriladi, bank sektori standartlari xalqaro talablarga moslashtiriladi, korrupsiyaga qarshi mexanizmlar kuchaytiriladi.

PESTEL tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliyaviy tashkilotlar O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy transformatsiyasida hal qiluvchi tashqi omil sifatida faol rol o'ynaydi. Siyosiy jihatdan ular byudjet boshqaruvi, davlat xaridlari, korporativ boshqaruv va davlat korxonalarini transformatsiya qilish kabi sohalarida xalqaro standartlarni joriy etishga yordam bermoqda. Iqtisodiy omillarda esa imtiyozli kreditlar, grantlar va texnik yordam orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, investitsiya oqimini oshirish va bozor infratuzilmasini shakllantirishga kuchli turtki berayotgani kuzatiladi. Shu bilan birga, ular ijtimoiy sohada aholining turmush darajasini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish orqali ijtimoiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlamogda.

Texnologik, ekologik va huquqiy omillar bo'yicha tahlillar xalqaro moliyaviy institutlarning O'zbekiston modernizatsiyasidagi kompleks rolini ochib beradi. Texnologik jihatdan ular energetika, transport, raqamli boshqaruv va bank texnologiyalarida zamonaviy yechimlarni joriy etishga ko'maklashmogda. Ekologik omillarda esa AIIB, ADB va EBRDning "yashil" iqtisodiyotga yo'naltirilgan

investitsiyalari O'zbekistonning iqlim barqarorligi strategiyasiga mos tushadi. Huquqiy omillar esa investitsiya muhitini liberallashtirish, xususiyl sektorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shaffoflikni oshirish va korrupsiyani kamaytirishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, PESTEL tahlili xalqaro moliyaviy tashkilotlar O'zbekistonning iqtisodiy siyosatiga makro darajada, ko'p qirrali va tizimli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida tizimli modernizatsiya va barqaror rivojlanishning muhim tashqi omili sifatida faol rol o'ynaydi. Ularning ta'siri siyosiy boshqaruvning shaffofligi, investitsiya muhitining yaxshilanishi, bank tizimining modernizatsiyasi, infratuzilma loyihalari va ijtimoiy sohalarning rivojlanishi orqali namoyon bo'ladi. PESTEL tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, IFolar nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi, balki mamlakatning global integratsiyaga kirishida strategik yo'nalishlarni shakllantiradi.

Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik orqali O'zbekistonning investitsion jozibadorligi oshgan, xorijiy kapital oqimi faollashgan va mahalliy ishlab chiqarish hamda kichik va o'rta biznesning rivojlanishi rag'batlantirilgan. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasini samarali amalga oshirishga, ish o'rinlarini yaratishga va aholining turmush darajasini oshirishga imkon beradi.

Olib borilgan izlanish natijasida takliflar ishlab chiqildi. Quyidagilar:

Birinchidan, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va yangi investitsiya loyihalarini jalb qilish orqali infratuzilma, energetika va ijtimoiy sohalarda yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

Ikkinchidan, IFolar bilan ishlash jarayonida mahalliy ishlab chiqarish va kichik-o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, ularning iqtisodiy o'sishga bo'lgan hissasini oshirish lozim.

Uchinchidan, xalqaro tajriba va tavsiyalar asosida makroiqtisodiy va huquqiy islohotlarni davom ettirib, iqtisodiy barqarorlik va investitsiya muhitini yaxshilashni doimiy strategik yo'nalish sifatida belgilash ishlarini olib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatkulova N.M., The Impact of International Financial Organizations on Uzbekistan's Investment Policy. (2025). *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 4(7), 173-175. <https://ijmri.de/index.php/jmsi/article/view/1595>
2. Романчук Е., ФГБУН Институт экономики РАН, № 11 (2024), p 74-95, "Мировая Экономика", <https://freezetechn.ru/0207-3676/article/view/682700>
3. Rakhmonova D.E., What is the economic impact of Uzbekistan's integration into international financial institutions, "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali, Vol. 3 No. 2 (2025), <https://doi.org/10.5281/zenodo.15224751>
4. Alimov A., Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston bank sektori va iqtisodiyotiga ta'siri: YETTB faoliyati misolida tahlil, "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali, Vol. 3 No. 8 (2025), <https://doi.org/10.5281/zenodo.16902040>

5. B. Mamayev and H. Nosirov, "O'zbekistonning Xalqaro Moliya Munosabatlariga Integratsiyalashuvi", *ZDPP*, vol. 3, no. 13(Special Issue), pp. 19–24, Dec. 2024. <https://inlibrary.uz/index.php/zdpp/article/view/58067>
6. Rafiyeva Z., Ismoilov Sh., Rahmatullayev A., "Xalqaro Moliya O'zbekistonda", *IJRS*, vol. 2, no. 3, pp. 29–34, Mar. 2024, Accessed: Dec. 01, 2025. [Online]. Available: <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/2198>
7. Vahabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik /A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev. — Toshkent: Baktria press, 2015. — 584 b.
8. <https://cbu.uz/en/about/international-cooperation/74761/>
9. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/05/24/uzbe_kistan-and-world-bank-group-to-boost-cooperation-with-new-country-partnership-framework
10. <https://cadp.uz/en/achievements/ozbekiston-va-osiyo-taraqqiyot-banki-istiqbolli-hamkorlik-yolida>
11. <https://uza.uz/en/posts/partnership-for-progress-uzbekistans-strategic-engagement-with-the-ebd-and-european-investment-bank-751874?q=%2Fposts%2Fpartnership-for-progress-uzbekistans-strategic-engagement-with-the-ebd-and-european-investment-bank-751874>
12. https://en.wikipedia.org/wiki/International_organization_membership_of_Uzbekistan

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

